XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 14-oktabr VI-89-148-2-36-K/24 Kogon tumani

Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining 2024-yil 15-iyuldagi “Kogon tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona va samarali foydalanish holatini o‘rganish natijalari to‘g‘risida”gi VI-85-91-2-36-K/24-sonli qarori yuzasidan yangi qaror qabul qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 27-avgustdagi **20-07/1/297**-sonli xati ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-15-son Farmonining 5-bandiga asosan Buxoro viloyati adliya boshqarmasi tomonidan hozirga qadar qabul qilingan xalq deputatlari Kengashlari qarorlari **“E-qaror”** ATT orqali monitoring qilingan. Ushbu o‘tkazilgan monitoring davomida mazkur Farmonga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan yer munosabatlariga doir **VI-85-91-2-36-K/24**-sonli qarori hududiy adliya organidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmaganligi aniqlangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyudagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-6243**-sonli Farmonining 13-bandiga asosan huquqiy ekspertiza yakuni bo‘yicha hududiy adliya organlarining ijobiy xulosasi mavjudligi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yer munosabatlariga doir hujjatlarni qabul qilishning majburiy sharti hisoblanadi.

Kogon tumanida huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilganyerlar va ushbu yerlardan foydalanish holati 2024-yilning 15-yanvardan 16-fevral kunlariga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashining ishchi guruhi tomonidan o‘rganilgan.

Ishchi guruhi tomonidan o‘rganish natijasida, **“Bobir al maftun”** f/x jami 3 ta **28,25** gektar yer maydoni,**MARSIYAN PLYUS MCHJ 1,519** gektar yer maydonidan, **TEMUR MAXMUD ZAMINI**" fermer xo`jaligi **22,07** gektar yer maydonidan ya’ni jami **51,84** gektar yer uchastkalari foydalanib kelayotganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Buxoro viloyati adliya boshqarmasining 2024-yil 27-avgustdagi “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi 20-07/1/297-sonli taqdimnomasi inobatga olinsin.
2. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining 2024-yil 15-iyuldagi VI-85-91-2-36-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Ishchi guruhining o‘rganishlari natijasida quyidagilar:

- tumanda **51,84 gektar** yer uchastkalari bo‘yicha tuman hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida yer ijara shartnomasini tuzish (er ijara shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish) bo‘yicha kiritilgan takliflari **1-ilova**ga muvofiq ma’qullansin.

4. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Avliyoqulov), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (X.Baqoyev) ushbu qarorning 1-ilovasiga asosan ijara shartnomasi tuziladigan (qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritiladigan) yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritilishini nazoratga olsin.
5. Kadastr agentligi tuman bo‘limi (X.Baqoyev) belgilangan muddatda mazkur qarorning 1-ilovasidagi yerlardan foydalanuvchilar (qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbarlari)ni xabardor qilsin.
6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi N.Jo‘rayeva zimmasiga yuklansin.
7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi BURONOV SHOMUROD ASHUROVICH

Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining
2024-yil 14-oktabrdagi
VI-89-148-2-36-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tumanda xuquqiy xujjatdagi va amaldagi yer maydoni bir birdan farq qiladigan va doimiy foydalanish, doimiy egalik qilish huquqidagi yer uchastkalari
RO‘YXATI

№	kadastr raqami	INN, PNFL	Номи	Ҳуқуқийлиги	Amaldagi maydon	Izoh xudud bergani
1.	20:04:000007981	206187834	“Bobir al maftun” f/x	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	11,227	Ижарада фойдаланиш
2.	20:04:000007980	206187834	“Bobir al maftun” f/x	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	6,483	Ижарада фойдаланиш
3.	20:04:000007979	206187834	“Bobir al maftun” f/x	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	10,534	Ижарада фойдаланиш
4.	20:04:000007995	204813522	MARSIYAN PLYUS МЧЖ	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	1,519	Ижарада фойдаланиш
5	20:04:000006385	303260054	"TEMUR MAXMUD ZAMINI" fermer xo`jaligi	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	1,578	Ижарада фойдаланиш
6	20:04:000006383	303260054	"TEMUR MAXMUD ZAMINI" fermer xo`jaligi	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	10,41	Ижарада фойдаланиш

7	20:04:000006384	303260054	"TEMUR MAXMUD ZAMINI" fermer xo`jaligi	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	5,11	Ижарада фойдаланиш

8	20:04:000006386	303260054	"TEMUR MAXMUD ZAMINI" fermer xo`jaligi	Хужжатдаги ва амалдаги ер майдони ўртасидаги тафовутмавжуд	4,938	Ижарада фойдаланиш
	Жами:	**X**	**X**	**X**	**51.84**	**X**